

**Ekspertizadan o'tkazish to'g'risidagi
765/21-sonli SHARTNOMA**

Navoiy sh.

13.12.2021 y.

O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi huzuridagi «Shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi» Davlat unitar korxonasi Navoiy viloyat filiali (keyingi o'rinlarda «Bajaruvchi» deb yuritiladi) nomidan 04.01.2021 yil 13-2021-sonli ishonchnoma asosida faoliyat yurituvchi direktor Z.Z.Sultonov bir tomondan va «Navoiy kon-metallurgiya kombinati» aksiyadorlik jamiyati (keyingi o'rinlar «Buyurtmachi» deb yuritiladi) nomidan 22.09.2021 yil 41-sonli ishonchnoma asosida faoliyat yurituvchi loyihani boshqarish va kapital qurilish direktori F.Sh.Baxronov, ikkinchi tomondan, birgalikda «Tomonlar», quyidagilar to'g'risida mazkur shartnomani tuzdilar:

I. SHARTNOMA PREDMETI

- 1.1. Mazkur shartnomaga muvofiq, Buyurtmachining topshirig'i bo'yicha: «ЦРУ НГМК. Строительство столовой на 100 посадочных мест на ГМЗ-2 в рамках реализации инвестиционного проекта. Расширение перерабатывающих мощностей ГМЗ-2» ob'ekting loyiha smeta hujjatlarini ekspertizadan o'tkazish bo'yicha xizmat ko'rsatish majburiyatini oladi, Buyurtmachi, o'z navbatida, ekspertizadan o'tkazish ishlari uchun to'lovni amalga oshirish majburiyatini oladi.
- 1.2. Ekspertizani o'tkazish muddati mazkur shartnomaning 2.2-bandiga muvofiq Buyurtmachi tomondan oldindan pul mablag'lari o'tkazilgandan so'ng 30 ish kuni, agar Buyurtmachiga hujjatlarni taqdim etish bo'yicha (kamchiliklarni bartaraf etish to'g'risida) xat yuborilgan bo'lsa, ishlarni bajarish muddati Bajaruvchining xatida belgilangan davrga mutanosib ravishda uzaytiriladi.
- 1.3. Ekspertizadan o'tkazishga Buyurtmachining 07.12.2021 yildagi 04-02-06/11-310-sonli xati asos hisoblanadi.
- 1.4. Ekspertizadan o'tkazish ishlarining yakuniy natijasi ekspert xulosasi hisoblanadi.
- 1.5. Bajaruvchi mustaqil ravishda hamda uchinchi shaxslarni jalb etish bilan ishlarni bajaradi.

II. SHARTNOMA BAHOSI VA O'ZARO HISOB-KITOB TARTIBI

- 2.1. Kelishuv bayonomasiga muvofiq (1-ilova) shartnoma bahosi (2-ilova) va ekspertizadan o'tkazish ishlarining umumiy qiymati: **6731065 (olti million yetti yuz o'ttiz bir ming oltinchi besh) so'm, shu jumladan QQS 15% 877965 (Sakkiz yuz yetmish yetti ming to'qqiz yuz oltinchi besh) so'm.**
- 2.2. Buyurtmachi Bajaruvchiga shartnoma imzolanganidan so'ng 10 (o'n) kun ichida shartnoma umumiy qiymatining 100 % miqdorini oldindan to'laydi.
- 2.3. Ekspertizadan o'tkazish ishlari bajarilib, o'zaro to'liq hisob-kitob qilingandan so'ng, Bajaruvchi aybdor bo'lmagan taqdirda mazkur shartnoma predmeti bo'yicha takroran ekspertizaga taqdim etilsa, takroriy ekspertizadan o'tkazish uchun xaq to'lash yangi shartnoma tuzish orqali amalga oshiriladi.
- 2.4. Shartnoma majburiyatlari bekor qilinganda, shartnomaviy hujjatlar (bajaruvchining nusxalari) hamda qayta ishlashga va takomillashtirishga qaytarilgan loyiha materiallari taqdim etilmaganda, bajarilgan ish hajmidan qat'iy nazar to'langan mablag'lar qaytarilmaydi.

III. TOMONLARNING MAJBURIYATLARI

- 3.1. Bajaruvchi taqdim etilgan loyiha xujjatlarini O'zbekiston Respublikasining amaldagi normativ-huquqiy xujjatlariga muvofiq ekspertizadan o'tkazish majburiyatini oladi;
- 3.2. Buyurtmachi mazkur shartnoma yuzasidan quyidagi majburiyatlarni oladi:
 - a) Bajaruvchiga ekspertizadan o'tkazish uchun zaruriy tegishli hujjatlarni o'z vaqtida to'liq taqdim etish;
 - b) ekspertizadan o'tkazish xizmati haqini o'z muddatida shartnomaning 2.2-bandiga muvofiq to'lovni amalga oshirish;
 - v) ekspertiza xulosasini olish bilan birgalikda ekspertizadan o'tkazish uchun taqdim etilgan hujjatlarni qabul qilib olish. Hujjatlar olib ketilmagan taqdirda Bajaruvchi ularning saqlanishi uchun javob bermaydi.

IV. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI, NIZOLARNI XAL QILISH TARTIBI

- 4.1. Buyurtmachi Bajaruvchiga bajarilgan ishlar uchun to'lovning kechiktirilgan har bir kuni uchun shartnoma bahosining 0,4% miqdorida penya to'laydi, biroq penyaning umumiy miqdori shartnoma bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim.
- 4.2. Bajaruvchi Buyurtmachiga ekspertizadan o'tkazish ishlarini bajarmaganda yoki o'z vaqtida bajarmaganda kechiktirilgan har bir kun uchun shartnoma bahosining 0,4 % miqdorida penya to'laydi, biroq penyaning umumiy miqdori shartnoma bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim.
- 4.3. Tomonlarning mazkur shartnomada nazarda tutilmagan javobgarligi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi.
- 4.4. Mazkur shartnomaning bajarilishi yuzasidan tomonlar o'rtasida kelib chiqadigan nizolar va kelishmovchilik muzokaralar yo'li bilan hal etiladi.
- 4.5. Nizolarni muzokaralar yo'li bilan hal etishning imkoni bo'lmagan taqdirda, kelishmovchiliklarni bartaraf etish O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq o'rnatilgan tartibda Navoiy shahar tumanlararo iqtisodiy sudida ko'rib chiqiladi.

V. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHGA DOIR MAJBURIY SHARTLAR

- 5.1. Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda tomonlar: korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga zid bo'lgan har qanday xatti-harakatlarini amalga oshirmaslik; shu jumladan pora taklif qilmasligi, va da bermasligi, tovlamachilik qilmasligi, to'g'ridan to'g'ri yoki bilvosita pora olishiga, ya'ni moddiy boyliklar yoki mulkiy imtiyozlarni olishga rozilik bermasligi, pora beruvchining manfaatlari yo'lida «Shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi» DUK xodimi o'z lavozimidan foydalangan holda amalga oshirishi yoki amalga oshirishi mumkin bo'lgan muayyan xarakatlarini bajarmasligi shart. Tomonlar ushbu xarakatlarning oldini olish uchun choralar ko'rilihini kafolatlaydilar.
- 5.2. Agar tomonlar shartnoma shartlarining buzilishiga duch kelsa, shuningdek, «Shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi» DUK xodimlarining ushbu shartnomaga va O'zbekiston Respublikasi qonunlariga zid bo'lgan xatti-xarakatlari, shu jumladan korruptsiyaviy huquqbuzarliklarni sodir etilganligi haqida quyidagi aloqa kanallariga murojaat qilish mumkin:
«Shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi» DUK ishonchli telefonlari 71 210 11 04, 71 244 10 47.

VI. SHARTNOMANI O'ZGARTIRISH YOKI BEKOR QILISH TARTIBI

- 6.1. Ushbu shartnomaga har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish ular yozma ravishda rasmiylashtirilgan va tarafdoring vakolatli shaxslari tomondan imzolangan taqdirda xaqiqiy hisoblanadi.
- 6.2. Shartnomani muddatidan oldin bekor qilishga tarafdoring kelishuviga muvofiq yoki O'zbekiston Respublikasini amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan asoslarga ko'ra, yetkazilgan zarar qoplangan holda yo'l qo'yiladi.
- 6.3. Shartnomani bekor qilish haqida qarorga kelgan taraf ikkinchi tarafga 3 kun oldin yozma bildirishnoma yuborishi shart.

VII. FORS-MAJOR

- 7.1. Tarafklar ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan, ularni oldindan bilish yoki oldini olish imkoniyati bo'lmagan holatlar (yengib bo'lmay kuch) oqibatida majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun tarafdoring birortasi ikkinchi taraf oldida javobgar emasdir. Fors-major holatlari deb quyidagilar hisoblanadi:
- tabiiy ofatlar, yong'in, epidemiya, avariya hamda boshqa omillar va holatlar, bunday holda majburiyatlarni bajarish muddatlari fors-major holatining davom etish muddatiga mutanosib tarzda uzaytiriladi.
- 7.2. Ikkala taraf mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarishga to'sqinlik qiluvchi fors-major holatlarining boshlanganligi va tugaganligi to'g'risida bir-birlarini zudlik bilan xabardor qilishlari lozim.
- 7.3. Fors-major holatlarini vaj qilib keltirayotgan taraf ularning tasdiqi sifatida vakolatli davlat organining tegishli hujjatini taqdim etishi shart.

VIII. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI

- 8.1. Mazkur shartnoma O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi G'aznachiligi ro'yxatidan o'tgandan so'ng kuchga kiradi, 2021 yil 31 dekabr gacha yuridik kuchga ega.
- 8.2. Mazkur shartnoma ikki nusxada tuzildi. Ikkala nusxa aynan bir xil va teng yuridik kuchga ega.

Tomonlarning manzillari va rekvizitlari:

Bajaruvchi:
Manzil: 100011, Toshkent sh., Abay ko'ch., 4a-uy
X/R: 20208000200882573001
STIR: 305 550 214 **IFUT:** 71120
Bank: "Turon bank" ATB Toshkent filiali
MFO: 00446

Buyurtmachi:
Manzil: Navoiy sh., Navoiy ko'ch., 27-uy
X/R: 2021 0000 5053 9837 2001
STIR: 308425864 **IFUT:** 24410
Bank: "Milliy bank" Navoiy sh.
QQS to'lovchining ro'yxatga olinganligi
850010168009

«Shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi»
DUK Navoiy viloyat filiali
Manzil: 210100, Navoiy sh., Zarafshan ko'ch., 10-uy
X/R: 2020 8000 300 8825 73 003
STIR: 305 550 214 **IFUT:** 71120
Bank: "Turon bank" ATB Navoiy filiali
MFO: 00200 **Telefon:** 220-50-01; 220-50-02
QQS to'lovchining ro'yxatga olinganligi
326050002278

M.O':



F.Sh.Baxronov

n.2.2

27.12.2021

13.12.2021 yildagi 765/21-sonli
sonli shartnomaga 1-ilova

13.12.2021 yildagi 765/21-sonli
sonli shartnomaga 2-ilova


**SHARTNOMAVIY NARXNI KELISHISH
BAYONNOMASI**

O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi huzuridagi «Shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi» Davlat unitar korxonasi Navoiy viloyat filiali (keyingi o'rinlarda «Bajaruvchi» deb yuritiladi) nomidan 04.01.2021 yil 13-2021- sonli ishonchnoma asosida faoliyat yurituvchi direktor Z.Z.Sultonov bir tomondan va «Navoiy kon-metallurgiya kombinati» aksiyadorlik jamiyati (keyingi o'rinlar «Buyurtmachi» deb yuritiladi) nomidan 22.09.2021 yil 41-sonli ishonchnoma asosida faoliyat yurituvchi loyihasi boshqarish va kapital qurilish direktori F.Sh.Baxronov, ikkinchi tomondan, shartnomada keltirilgan ob'ekt bo'yicha ishchi loyihasini ekspertizadan o'tkazish xizmatlari uchun shartnoma narxi qiymatini tomonlar o'zaro kelishilganligini tasdiqlaymiz.

Ekspertiza xizmatlarining o'tkazish shartnoma bahosi: **“ЦРУ НГМК. Строительство столовой на 100 посадочных мест на ГМЗ-2 в рамках реализации инвестиционного проекта. Расширение перерабатывающих мощностей ГМЗ-2”** ishchi loyihasini ekspertizadan o'tkazish bo'yicha (QSSsiz) **5853100 (Besh million sakkiz yuz ellik uch ming yuz)** so'mni tashkil qiladi.

Mazkur bayonnomani «Bajaruvchi» bilan «Buyurtmachi» o'rtasida o'zaro hisob-kitoblarni olib borish uchun asos hisoblanadi.

Jami: **6731065 (Olti million yetti yuz o'ttiz bir ming oltmish besh)** so'm, shu jumladan QQS 15% **877965 (Sakkiz yuz yetmish yetti ming to'qqiz yuz oltmish besh)** so'm.



[Signature]

Z.Z.Sultonov



Direktor

F.Sh.Baxronov

[Signature]

[Signature]

Shartnoma qiymatining xisob-kitobi

13.12.2021 yildagi 765/21-sonli shartnomaga asosan

“ЦРУ НГМК. Строительство столовой на 100 посадочных мест на ГМЗ-2 в рамках реализации инвестиционного проекта. Расширение перерабатывающих мощностей ГМЗ-2” ishchi loyihasi

Loyiha smeta hujjatlarini ekspertizadan o'tkazishning shartnomaviy narxlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 17 sentabrdagi 579-son qarorining 6-ilovasiga muvofiq belgilanadi.

Shartnoma qiymatining hisob-kitobi:

$5\ 853\ 174,624 \times 0,1\% = 5\ 853,1 + 15\% \text{ QQS}$

Jami to'lovga: 6731065 (Olti million yetti yuz o'ttiz bir ming oltmish besh) so'm, shu jumladan QQS 15% 877965 (Sakkiz yuz yetmish yetti ming to'qqiz yuz oltmish besh) so'm.

Bosh mutaxassis:

[Signature]

Temirova R.T.

[Signature]

DALOLATNOMA
 13.12.2021 yildagi 765/21-sonli shartnomaga asosan
 bajarilgan ishlarni topshirish - qabul qilish bo'yicha
 «___» _____ 2021 y.

Biz, quyida imzo chekuvchilar, Qurilish Vazirligi huzuridagi "Shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi" DUK Navoiy viloyat filiali 04.01.2021 yil 13-2021- sonli ishonchnoma asosida faoliyat yurituvchi direktor Z.Z.Sultonov va BUYURTMACHIning vakili 22.09.2021 yil 41-sonli ishonchnoma asosida faoliyat yurituvchi "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyati loyihani boshqarish va kapital qurilish direktori - F.Sh.Baxronov, «ЦРУ НГМК. Строительство столовой на 100 посадочных мест на ГМЗ-2 в рамках реализации инвестиционного проекта. Расширение перерабатывающих мощностей ГМЗ-2» ob'ektining ishchi loyihagini ekspertizadan o'tkazish to'g'risidagi 13.12.2021 yildagi 765/21-sonli shartnomaga asosan ekspert xulosasi Buyurtmachiga 1 nusxada berilgani haqida tuzdilar.

Buyurtmachi ekspert xulosasini qabul qildi va xulosaning sifati va to'liqligi bo'yicha bajaruvchiga e'tirozlari mavjud emas.

6731065 (Olti million yetti yuz o'ttiz bir ming oltmish besh) so'm, shu jumladan QQS 15% 877965 (Sakkiz yuz yetmish yetti ming to'qqiz yuz oltmish besh) so'm.

Topshirdi Bajaruvchi:

O'zbekiston Respublikasi Qurilish Vazirligi
 xuzuridagi "Shaharsozlik hujjatlari
 ekspertizasi" DUK Navoiy viloyat filiali

Manzil: 210100, Navoiy sh., Zarapetyan ko'ch., 10-uy
H/R: 2020 8000 300 8825 73 003
STIR: 305 550 214 IFUT: 71120
Bank: "Turon bank" ATB Navoiy filiali
Bank kodi: 00200 Telefon: 220-50-01, 220-50-02

Qabul qildi Buyurtmachi:

"Navoiy kon-metallurgiya kombinati"
 aksiyadorlik jamiyati

Manzil: Navoiy sh., Navoiy ko'ch., 27-uy
H/R: 2021 0000 5053 9837 2001
STIR: 308425864 IFUT: 24410
Bank: "Milliy bank" Navoiy sh.
Bank kodi: 00196 Telefon: 226-10-95

M.O'.



F.Sh.Baxronov

OLDINDAN TO'LOV HISOB FAKTURA № F85765/21

«___» _____ 2021 y.
 13.12.2021 yildagi 765/21-sonli shartnomaga

Ijrochi:
 O'zbekiston Respublikasi Qurilish Vazirligi
 xuzuridagi "Shaharsozlik hujjatlari
 ekspertizasi" DUK Navoiy viloyat filiali

Manzil: 210100, Navoiy sh., Zarapetyan ko'ch., 10-uy
H/R: 2020 8000 300 8825 73 003
STIR: 305 550 214 **IFUT:** 71120
Bank: "Turon bank" ATB Navoiy filiali
Bank kodi: 00200 **Telefon:** 220-50-01, 220-50-02

Buyurtmachi:
 "Navoiy kon-metallurgiya kombinati"
 aksiyadorlik jamiyati

Manzil: Navoiy sh., Navoiy ko'ch., 27-uy
H/R: 2021 0000 5053 9837 2001
STIR: 308425864 **IFUT:** 24410
Bank: "Milliy bank" Navoiy sh.
Bank kodi: 00196 **Telefon:** 227-72-60

QQS to'lovchining ro'yxatga olinganlik
 kodi 326050002278

QQS to'lovchining ro'yxatga olinganlik
 kodi 350010168900

Nomi (ish, xizmatlar)	O'l- chov birlig i	Soni	Narxi	QQSsiz qiymati	QQS		QQS xisobga olib yetkazib berish qiymati
					stav ka	Summa	
1	2	3	4	5	6	7	8
"ЦРУ НГМК. Строительство столовой на 100 посадочных мест на ГМЗ-2 в рамках реализации инвестиционного проекта. Расширение перерабатывающих мощностей ГМЗ-2" ishchi loyihagini ekspertizadan o'tkazish	so'm	1	5853100	5853100	15%	877965	6731065
<p>Jami: 6731065 (Olti million yetti yuz o'ttiz bir ming oltmish besh) so'm, shu jumladan QQS 15% 877965 (Sakkiz yuz yetmish yetti ming to'qqiz yuz oltmish besh) so'm.</p>							

Direktor

Xisobchi

Ishni topshirdi:



Qabul qildi _____
 (Buyurtmachining vakili)